

“Kataloglashtirish va klassifikatsiyalash” fanidan yakuniy nazorat savollari

1. Axborot-kutubxona kataloglariga kirish nimani anglatadi va ular kutubxona faoliyatida qanday rol o'ynaydi?
2. Axborot-kutubxona kataloglarining turlari va shakllari nimalardan iborat?
3. Kutubxona kataloglarini tuzishning nazariy asoslari qanday?
4. Fondlarni to'liq aks ettirish bo'yicha turli kataloglar (alfavit, sistemali, predmet, elektron) qanday farq qiladi?
5. Alfavit katalogni tashkil qilish xususiyatlarini izohlang.
6. Xalqaro Kataloglash Prinsiplari (ICP) va Kutubxona Reference Modeli (LRM) kutubxona kataloglarida qanday qo'llaniladi?
7. Kataloglashtirish etikasi nimani anglatadi va uning prinsiplari qanday?
8. Hujjatlarda bibliografik tavsif tuzilishi qanday va uning nazariy asoslari nimadan iborat?
9. Tavsif nazariyasi va metodikasi qanday tushuniladi?
10. Bibliografik tavsif sxemasiga qo'yiladigan talab va qoidalar qanday?
11. Tavsif prinsiplari nimalardan iborat va ularni amaliyotda qanday qo'llash mumkin?
12. Har xil turdagi nashrlarga alohida bibliografik tasvir berish usullari qanday farq qiladi?
13. Bibliografik tasvir tuzishning umumiy va xususiy metodikasi nimani anglatadi?
14. Hujjatlarning asosiy turlari va hujjat elementlari qanday tasniflanadi?
15. RDA (Resource Description and Access) standartining veb-muhitdagi resurslarni tavsiflashdagi roli qanday?
16. KBK jadvalining maqsad va vazifalari qanday; uning kutubxona-fondlarni tashkil etish va foydalanuvchi ehtiyojlarini qondirishdagi roli haqida tahlil qiling.
17. Alfavit, sistemali va predmet (mavzuiy) kataloglar hamda elektron kataloglarni solishtiring — har birining afzalliklari va kamchiliklarini ko'rsatib bering.
18. Hujjatlarni sistemalashtirishda amal qilinadigan asosiy talab va qoidalar qaysilar; ular amaliyotda qanday muammolarni oldini oladi?
19. UO'K (Universal Decimal Classification) nashrlari nimani ta'minlaydi va ularning ilmiyamaliy ahamiyatini misollar orqali tushuntiring.
20. Sistemalashtirish jarayoni qanday bosqichlardan iborat; har bir bosqichda qanday hujjat talab etiladi?
21. Maxsus namunaviy bo'linishlar nima? ularning tuzilishi va biror fan yoki mavzu uchun misol keltiring hamda amaliy foydasini tushuntiring.
22. UO'K (Universal Decimal Classification) jadvalining asosiy qatorlari qaysilar va ularning har biri hujjatlarni joylashtirish va izlashda qanday rol o'ynaydi?
23. KBK bo'yicha sistemalashtirish jarayoni qanday? uni milliy klassifikatsiya sifatida farqlovchi jihatlarni tahlil qiling.
24. Umumiy namunaviy bo'linish (UNB) nima? konkret misol keltirib, undagi bo'linishlar qanday ishlashini ko'rsating.
25. KBK jadvalining mohiyati va UO'K (Universal Decimal Classification) dan farqli jihatlarni taqqoslab chiqish — qaysi holatda qaysi tizim afzalroq?
26. Klassifikatsiya jadvalarini yaratishda faoliyat yuritgan olimlar kimlar va ularning qaysi g'oyalari hozirgi sistemalashtirish metodikasiga ta'sir ko'rsatgan? (eng kamida 3 olimni misol keltiring va ularning hissasini tahlil qiling).
27. Elektron katalog nima va uning an'anaviy (qog'oz) kataloglarga nisbatan afzalliklari qanday — foydalanuvchi va kutubxona nuqtai nazaridan misollar keltiring.

28. Hujjatlarni sistemalashtirish uslublarini sanab, har bir uslubning qaysi turdagi fondlarga mos kelishini tushuntiring.
29. Alfavit katalogni tashkil qilish xususiyatlarini sanang va uning tashkil etilishida yuzaga keladigan murakkabliklarni qanday bartaraf etish mumkinligini tahlil qiling.
30. Katalogni tashkil etishning o'zaro uzviy bog'langan jarayonlarini bosqichma-bosqich bayon qiling va har bir jarayonning ahamiyatini ko'rsating.
31. Bibliografik tasvir (tavsif) deb nimaga aytiladi; uning asosiy elementlari qanday va tinish belgilari bibliografik tavsifda nima uchun muhim?
32. Axborot-kutubxona kataloglarining turlari nimalardan iborat; har bir tur qanday vazifani bajaradi va ulardan qaysi hollarda foydalanish maqsadga muvofiq?
33. Bibliografik tavsifda tinish belgilari va ularning vazifalarini misollar bilan tushuntiring (kamida 3 tur tinish belgisini ko'rsatib tahlil amalga oshiring).
34. Fanlarni klassifikatsiyalash tarixini shu sohaga hissa qo'shgan olimlar nuqtai nazaridan yoritib bering; qaysi yondashuvlar bugungi kun klassifikatsiyasiga asos bo'lganini tahlil qiling.
35. Hujjatlarni sistemali klassifikatsiyasi va fanlarni klassifikatsiyalash o'rtasidagi umumiylik va farqlar nimada?
36. Sharqda fanlar klassifikatsiyasi qanday shakllangan va rivojlangan?
37. G'arbiy Yevropada kutubxona klassifikatsiyalarining paydo bo'lishi va asosiy xususiyatlari qanday?
38. Hujjatlarni klassifikatsiyalash etikasi nima va u amaliyotda qanday qo'llanadi?
39. Tizimlashtirishning vazifasi va maqsadi nima?
40. Tizimlashtirish obyekti va usullari nimadan iborat?
41. Tizimlashtirishning umumiy va xususiy usullari qanday farq qiladi?
42. Umumiy usullarining asosiy prinsip va qoidalari nimadan iborat?
43. Tizimlashtirish jarayonlari qanday bosqichlardan iborat?
44. Indeks turlari qanday va ularning kutubxona amaliyotidagi ahamiyati nimada?
45. Klassifikatsiyalashning asosiy tamoyillari va usullari qanday belgilanadi?
46. Indeksflash qoidalari qanday bo'lishi kerak va ular nimaga asoslanadi?
47. KBK jadvali qanday maqsadda yaratilgan va uning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
48. Shifr indeks turlari qanday va ularning kutubxona fondidagi ahamiyati nimada?